

Shaxriqulova Dilnora Qahramonovna
Toshkent Davlat Yuridik universiteti talabasi
dilnorashaxriqulova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola investitsiya va investitsiya faoliyat tushunchasi, uning turlari va qonun bilan tartibga solinish asoslari, investitsiya tarixi haqidagi ma'lumotlar, shuningdek investitsiyaga asoslangan faoliyatlar xalqaro va milliymanbalar asosida olib berishga qaratilgan fikrlar haqida so'z yuritiladi.

Kirish so'zlar: investitsiya, investor, raqamli iqtisodiyot, fond birjasi, daromad potensiali, nou – xau, aksiya, obligatsiya, veksel, tavakkalchilik

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о понятии инвестиций и инвестиционной деятельности, ее видах и основаниях регулирования законодательством, а также мнениях, направленных на выявление инвестиционной деятельности на основе международного и национального законодательства.

Ключевые слова: инвестиции, инвестор, цифровая экономика, фондовая биржа, доходный потенциал, ноу-хай, акция, облигация, вексель, риск

ABSTRACT

This article talks about the concept of investment and investment activities, its types and the basis of regulation by law, as well as opinions aimed at revealing investment-based activities based on international and national legislation.

Key words: investment, investor, digital economy, stock exchange, income potential, know-how, share, bond, promissory note, risk

Kirish:

Bugungi rivojlangan va raqamli iqtisodiyotga asoslangan zamonda investitsiya va invistitsion faoliyatga asoslangan sohalar ham jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Aslini olganda, investitsiya orqali pul yoki boshqa mol – mulkingizni kerakli sohaga kiritish (ya'ni investitsiya qilish) orqali uning qiymatini oshirishingiz yoki aniq bir maqsadda samarali foydalanishingiz mumkin. Ko'pgina mamlakatlarning iqtisodiy sohalarining rivojlanishi va taraqqiy etishi ham aynan investitsiya faoliyat bilan bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi.

Investitsiya bugun yoki kecha paydo bo'lgan atama emas, u avvaldan mavjud bo'lgan va uning shakllanishi ming yilliklarga borib taqaladi. Ko'pgina olimlar investitsiyaning paydo bo'lishini turlicha taxmin qiladilar. Masalan, ba'zi manbalarda investitsiya tarixini insoniyatning boshlang'ich davrlari bilan bog'lashadi. Unga ko'ra:

“Sarmoya kiritish san'ati (investitsiya) **Homo** iqtisodining paydo bo'lishidan beri amalda bo'lgan. Eng dastlabki shaklda investitsiya qilish uzoq masofali savdoning risk [xavf] yoki mukofot qarorlari bilan bog'lanishi mumkin. Miloddan avvalgi 9500-8500 yillar oralig'ida Yaqin Sharqda, neolit davrida o'troq qishloq hayoti paydo bo'lgan. Iordan vodiysidan kelgan ko'chmanchilar hozirgi Turkiya hududidagi Markaziy Anadolu va Zagros (Toros) aholisi bilan uzoq masofalarga obsidian (shishasimon tog' jinsi), xonakilashtirilgan bug'doy va qo'y savdosi bilan shug'ullangan. Bu davrning tadbirkor savdogarlari ushbu tijorat sayohatlarida muhim xavf-xatarlarga duch kelishlari va har kuni iqtisodiy foyda olish uchun tavakkalchilik qilishlariga to'g'ri kelgan. Ushbu savdogarlarning juda aqlii investitsiya qarorlari tufayli uzoq masofali savdo o'n besh yuz milya masofani bosib o'tgan va hayratlanarli turli xil xom ashyolarni o'z ichiga olgan holda ilgari hech qachon bo'lмаганидек gullab-yashnadi”¹. Shuningdek, Bobil hukmdori Xammurappi tomonidan miloddan avvalgi 1700 – yillarda yozilgan “Xammurappi qonunlari” da savdogarlarga investitsiya (o'zining turib qolgan pullarini biror sohaga kiritish orqali foyda olish) qilish uchun ba'zi qonuniy asoslarni yaratib qo'yaniga ham tarix guvoh. Bundan ko'rinish turibdiki, investitsiya tarixi insoniyat tarixi bilan birga shakllangan bo'lib, uning tarixi ham ming yilliklarga borib taqaladi.

Zamonaviy investitsiya ildizlarini esa 1600 – yillarga borib taqalishi mumkin deb taxmin qilinadi. 1602 – yilda ochilgan Amsterdam fond birjasida ishtirok etayotgan savdogarlar o'zlarining pul mablag'larini ko'pincha boshqa yurtlarga savdo – sotiq uchun qatnab yurgan savdogarlarga investitsiya qilish o'rqli ta'minlab, ulardan keladigan foydalarga sherik bo'lishgan. Ushbu fond bozori dastlab Angliyaning Sharqiy Hindiston (Ost India) kompaniyasi tomonidan aksiyalarini chiqarish uchun tashkil etilgan. Amsterdam fond birjasining asoslari bugungi kunda fond bozorlari bilan bir xil ishlaydigan potentsial investorlarni investitsiya imkoniyatlari bilan , korxonalarini esa sarmoya kiritilishi uchun investorlar bilan bog'lagan.² Bunday holatda savdogarning yurishmay turgan savdosini aynan ushbu fond birjasi ishtirokchilari tomonidan iqtisodiy qo'llab – quvvatlanishi ham savdogarning savdosiga ham investorning “cho'ntagiga” foyda bo'lish bilan bir qatorda davlatlarning iqtisodiy manfaatlarini ham ancha o'sishiga sabab bo'lgan.

Muhokama va natijalar:

Investitsiya faoliyati tushunchasi investitsiya va investor kabi tushunchalarga asoslangan bo'lib, bu bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun bu tushunchalarning lug'aviy ma'nosiga to'xtalish kerak. Investitsiya lotinchcha so'zdan olingan bo'lib, “invest” ya'ni “qo'yilma” degan ma'noni anglatadi³. Investitsiya –

¹ <https://portal.dnb.de/opac.htm?method=simpleSearch&cqlMode=true&query=nid%3D4027556-5>

² <https://focusedfinancial.co.uk/the-history-of-investing-what-the-past-can-teach-us-about-market-cycles/>

³ Fozilbekov, Bekzod Tohir O'G'Lи. "INVESTITSION FAOLIYAT TUSHUNCHASI VA UNING TASNIFLANISHI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.4 (2022): 327-339.

iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o‘z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirdorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish (qo‘yish)ga asoslangan faoliyat hisoblanishi ko‘pgina manbalarda keltirilgan. Investitsiya atamasining tub ma’nosи ham qo’shimcha daromad olishga qaratilganligi bilan asoslanadi. Ba’zi adabiyotlarda investitsiya deyilganda, keljakda samarali natija olish yoki ijtimoiy foydaga erishish uchun qonuniy tartibda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga sarmoyadorlar yoki davlat tomonidan kiritiladigan barcha turdagи mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushunilishi mumkinligi haqida fikrlar keltirilgan.⁴

Demak, investitsiya daromad va foya orttirilishga qaratilgan va keyinchalik ushbu daromadlardan foydalanish ko‘zda tutiladigan faoliyatni tushunish ham maqsadga muvofiq bo’ladi. Investitsiyalar turli maqsadlarda : misol uchun favqulodda vaziyatlar uchun mablag’ yaratish, o‘z maqsadlarinigizni moliyalashtirish, o‘zingiz uchun qo’shimcha pul mablag’lari yaratish vahokazolarda foydalanish mumkin. Turli sohalarga investitsiyaning kiritilishi ham sarmoyador uchun, ham uni qabul qilayotgan davlat yokida ikkinchi tomon iqtisodiyoti uchun yetarli pul va boshqa mulkiy ahamiyatga ega bo’lgan foydaning kelishiga asos bo’ladi. Nimalar investitsiya bo’la oladi degan savolga obligatsiyalar, aksiyalar, ko’chmas mulkni sotish va sotib olishga qaratilgan pul mablag’lari, bundan tashqari biror mahsulotni ishlab chiqarish uchun ishlatilishi lozim bo’lgan mulkni sotib olish ham investitsiya hisoblaymiz⁵. Umuman olganda, keljakdagi daromadni oshirish umidida qilingan har qanday harakatni ham sarmoya ya’ni investitsiya deb hisoblashimiz mumkin.

Investitsiyalarning keljakdagi o’sishi hamda daromad potentsialiga yo’naltirilganligi hamda tavakkalchilikka asoslanganligi sababli, investitsiya sohasi bilan bog’liq ma'lum darajadagi xavf mavjud bo’ladi. Investitsiyaning rivojlanish tarixida ham 2 ta asosiy kutilmagan holatlar mavjudligini Jeyms Etheridge o’zining ushbu sohaga oid maqolasida shunday asoslaydi:

➤ Kutilmagan narsa sodir bo’lishi (**The unexpected does happen**). Qimmatli qog’ozlar bozorini oldindan aytib bo’lmaydi va juda ko‘p omillar ta’sirida ostida bo’ladi. Muqobil variant esa – uzoq muddatli rejani belgilash va unga sodiq qolish, ko’tarilish va pasayishlarni yengishdir.

➤ Bozorlarning tiklanishi (**Markets recover**). Bozorlar aktivlar tushib ketganda, ularni yanada tushishidan oldin sotish vasvasasi bo’lishi mumkin. Biroq, bu faqat sizning yo’qotishingizni bo’lishi mumkin. Tarixga nazar tashlasak, hatto

⁴ Shayeq, Sharify Mohammad. "XORIJY INVESTITSIYALAR TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY ASOSLARI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.4 (2021): 757-761.

⁵ R Vernon International investment and international trade in the product cycle Quarterly Journal of Economics, volume 80, p. 190 – 207 Posted: 1966

bozorlarda aktivlar keskin pasayishdan keyin ham yana qayta tiklangan.⁶ Yuqorida ikki asos bizga investitsiyaning to'laligicha tavakkalchilikka va ichki ishonchga asoslanib harakat qilish kerakligidan dalolat beradi.

Bizni qonunchiligidizda investitsiya atamasiga quyidagi ta'rif beriladi:

“Investitsiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

✓ mablag‘larni, shu jumladan pul mablag‘larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni;

✓ ko‘char va ko‘chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);

✓ intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan, texnik hujjatlar, ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligidida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni.⁷

Investitsiya hech qanday daromad keltirmasligi yoki vaqt o’tishi bilan qiymatini yo’qotishi mumkin. Misol uchun, siz sarmoya kiritgan kompaniya bankrot bo’lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, siz sarmoya olish uchun vaqt va pul sarflagan taqdiringizda ham bu sohada kuchli mehnat bozoriga olib kirib bormasligi mumkin. Investitsiya faoliayti doimiy risklar bilan to’qnashishi va uning o’sishi yoki kamayishi albatta bozor imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Yana bir misol chet el investori biror sohaga yoki davlatga investitsiya kiritadi, albatta undan foyda olish maqsadida. U kiritgan investitsiya o’sha soha uchun yaratilgan erkin bozor munosabatlari hamda turli raqobatlar bilan o’sishi yoki umuman oshmasligi ham mumkin. Bu bilan kiritilayotgan investitsiya sohasini keng o’rganish talab etiladi hamda invrestitsiyani qabul qiluvchi davlat (host state) da yaratilgan erkin shart – sharoitlar sabab bo’lishi katta ahamiyatga molik masala hisoblanadi. Bunday kafolat va erkinliklarning mavjud bo’lishi birinchi navbatda investorning host statega nibatan ishonchini bir necha barabarga o’sishiga olib keladigan eng katta omil desak ham bo’ladi.

O‘zbekistob Respublikasi hukumati tomonidan ham investitsiyani va investitsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan keng ko’lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, **O‘zbekiston Respublikasining 2019 – yil 25 – dekabrda**

⁶ An economic theory of FDI: A behavioural economics and historical approach The Journal of Socio-Economics, volume 34, p. 530 – 531 Posted: 2005

⁷ (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019-y., 03/19/598/4221-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)

qabul qilingan “ Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida ” gi qonunda ham investitsiya va uning qonuniy asoslari, tartibga solinish mexanizmlari, investorlarga yaratilgan shart – sharoitlar, kafolatlar va imtiyozlarni qonunan belgilash tartiblari o‘rnatilgan. Bu bilan O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelayotgan investitsiyalarning qonun bilan himoya qilinishi hamda investorlarning hududga nisbatan kiritayotgan investitsiyasi uchun yetarlicha qonuniy himoya mavjud ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 28 – yanvardagi 4135 – sonli qaroriga asosan** O‘zbekiston Respublikasida Investitsiya va tashqi savdo vazirligi tashkil etilishi hamda **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 28 – yanvardagi** “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF – 5643 – son farmoni ham aynan investitsiya faoliyati hamda chet el investorlarining huquqlari kafolatlari yanada mustahkamlanganligini ko‘rish mumkin.

Yuqorida normativ hujjatlar asosida mamlakatimiz hududida bir necha sohalarni rivojlantirish maqsadida chet el investorlarini jalg qilish va bu bilan sohalarning jadal o‘sishini taminlash maqsad qilingan. Shuningdek, investitsiya sohasini rivojlantirishga qaratilgan har qanday harakat davlat tomonidan huquqiy kafolatnishi ham chet el investorlarining hududga nisbatan qiziqishlarini orttirishga sabab bo‘la oladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi **“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”** gi farmonining 26-maqsadida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalg etish⁸ choralarini ko‘rish vazifasi belgilanganligi ham investitsyaning rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 – yilgi Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalg qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobjiy natijalar esa ijtimoiy sohada to‘planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart.”⁹, deb ta’kidlab, investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g‘oyat

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonining 1-ilovasi

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) soni

muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e'tirof etadi.¹⁰ Bugungi statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan ikki yilda O'zbekiston Respublikasining tashqi qarzi ham bir necha baravarga oshganligi sababli ham biz tashqi investorlarning bizga kiritadigan investitsiyalari "muhtoj" bo'lin qolayotganimiz yo'q gap emas. Shu kungachan O'zbekiston Respublikasi chetdan eng ko'p sarmoya keladigan davlat Xitoy Xalq Respublikasi ekan. Strategik rivojlanish agentligi rahbari o'rinnbosari Aleksey Sim «Iqtisodiy sharh» nashriga bergan intervusida¹¹ 2021 yilda O'zbekistonga eng ko'p investitsiya kiritgan davlatlar beshligini sanab o'tdi va bu beshlik ichida eng yuqorida natijada XXR ning sarmoyalari **2,2 mlrd** dollarni tashkil qilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar jalb qilish bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi davlat bo'lib, bu iqtisodiy o'sish **4,8 %** ni tashkil etilishi aytib o'tilgan. Aynan ushbu omil ham investorlarning hududga nisbatan qiziqishi ancha yuqori ekanligini va investitsiyalarning kirib kelishi bilan bog'liq bo'lган masalalarning ham anchagina tartibga solinganligi dalolat beradi.

Xulosa

Yuqoridagilarni xulosalab, investitsiya faoliyatini rivojlantirish va turli sohalarga chet el investorlarini jalb qilish orqali rivojlantirish katta iqtisodiy foyda keltirishini inobatga olib quyidagilarni taklif qilishim mumkin:

1. Amaldagi investitsiya faoliyatini arribga soluvchi qonun normalariga kafolatlar bilan bir qatorda imtiyozlarni ham kiritilishi kerakligi;
2. Ushbu soha bo'yicha vakolatli organ qo'shida investotlarni jalb qiluvchi maxsus reklama agentligi yoki shu soha bilan doimiy shug'ullanuvchi SSM mutaxassislarining faoliyatini oshirishni;
3. Respublikaning har bir hududlarni alohida "**investitsiya zonaları**" ni tashkil etib (ushbu zonalar boshqa industrial zonalardan farqli bo'lishi talab etiladi) xorijiy investorlarni qiziqtirish uchun bu hududlarga qanday investitsiyalar kiritish kerakligi haqida ochiq tarzda mahalliy va xorijiy saytlarda, shuningdek boshqa axborot tizimlari orqali doimiy ravishda namoyish qilinishi kerak ekanligini.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 – yil 25 – dekabrda qabul qilingan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" gi qonun
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 28 – yanvardagi 4135 – sonli "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 28 – yanvardagi 4135 – sonli "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni

¹⁰ O'roqov, Uchqun Yunusovich, and Nozimaxon Jahongir qizi Rahimova. "Investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati." *RESEARCH AND EDUCATION* 1.3 (2022): 229-239.

¹¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2022/03/11/investor/>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) soni
7. Fozilbekov, Bekzod Tohir O‘G’Li. "INVESTITSION FAOLIYAT TUSHUNCHASI VA UNING TASNIFLANISHI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.4 (2022): 327-339.
8. Shayeq, Sharify Mohammad. "XORIJY INVESTITSIYALAR TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY ASOSLARI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.4 (2021): 757-761.
9. R Vernon International investment and international trade in the product cycle Quarterly Journal of Economics, volume 80, p. 190 – 207 Posted: 1966
10. An economic theory of FDI: A behavioural economics and historical approach The Journal of Socio-Economics, volume 34, p. 530 – 531 Posted: 2005
11. O‘roqov, Uchqun Yunusovich, and Nozimaxon Jahongir qizi Rahimova. "Investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati." RESEARCH AND EDUCATION 1.3 (2022): 229-239.
12. O‘roqov Uchqun Yunusovich, Moyliyev Murod Baxtiyorovich, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o‘g‘li. Mamlakat “Investitsiya jozibadorligini oshirish orqali xalqaro kapitalni jalb qilish masalalari”. Science and Education, 2022
13. Albaiges J., Morales G., Innovation in agriculture: a key process for sustainable development. Institutional position paper. San Jose. 2014

Web – sites

14. <https://portal.dnb.de>
15. <https://lex.uz>
16. <https://www.google.com>
17. <https://www.ssrn.com>
18. <https://cyberleninka.ru>
19. <https://investmentpolicy.unctad.org>
20. <https://www.gazeta.uz>
21. <https://kun.uz>